

ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-dekabr*



ANDIJON VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2025- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2025-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 3 461,0 ming kishini tashkil etib, 2024-yil yil boshiga nisbatan 66,6 ming kishiga yoki 102,0 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 1 806,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 52,2 %), qishloq aholisi soni 1 654,2 ming kishi (47,8 %)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 461,0 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+68,5 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



52,2%

Qishloq



47,8%

Aholining tabiiy harakati,


yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumotlar (kishi)

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2023-yil	2024-yil	o'sish, kamayish, +,-	2023-yil	2024-yil
Tug'ilganlar	89 400	86 305	3 095	26,6	25,2
O'lganlar	15 877	17 815	-1 938	4,7	5,2
Ko'chib kelganlar	6 674	7 202	-528	2,0	2,1
Ko'chib ketganlar	8 540	9 068	-528	2,5	2,6

Andijon viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2024- yil yanvar-dekabr




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni 2025-yil 1-yanvar holatiga



2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining **33,0** foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,2** foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,8** foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi

2024- yil 1- yanvar holatiga




2024-yil 1-yanvar holatiga Andijon viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **211,7 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **62,9 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **199,6 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **68,3 ming kishini** tashkil etgan.



Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2025- yil 1-yanvar holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1-yanvar holatiga daslabgi, kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	3 394 379	3 461 003	102,0
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	480 794	492 425	102,4
Xonobod	45 804	46 536	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	192 104	194 322	101,2
Andijon	286 097	292 580	102,3
Baliqchi	215 827	220 180	102,0
Bo'ston	77 846	79 665	102,3
Buloqboshi	153 088	155 951	101,9
Jalaquduq	198 804	202 103	101,7
Izboskan	255 290	260 242	101,9
Ulug'nor	63 835	64 319	100,8
Qo'rg'ontepa	230 379	234 337	101,7
Asaka	354 999	362 064	102,0
Marhamat	186 353	189 921	101,9
Shahrixon	324 439	331 296	102,1
Paxtaobod	208 739	212 726	101,9
Xo'jaobod	119 981	122 336	102,0

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi

2025- yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Andijon viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **804** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **15 kishiga** ortgan (2024-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **789** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahrida **7 524 kishi**, Xonobod shahrida **2 005 kishi** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Bo'ston tumanida **235 kishi**, Ulug'nor tumanida **232 kishini** tashkil etgan..

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Tug'ilganlarning taqsimlanishi




Yanvar -Mart




Yanvar -Iyun



Yanvar - Sentabr




Yanvar - Dekabr



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (%)

2024- yil yanvar-dekabr, kishi




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni **86 305** kishini tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (**89 400** kishi) nisbatan – **3 095** taga kamaygan, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti **25,2** promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan - **1,4** promilleda pasaygan.




O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr, kishi




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 65,0 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,2% o‘smalardan, 4,2 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,8 % ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 3,3 % nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 0,8 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 14,7 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, kishi



2024-yil yanvar-dekabr oylarida **17 815** ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **5,2** promilleni tashkil etdi.

Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-Mart



Yanvar -Iyun




Yanvar -Sentabr




Yanvar -Dekabr



QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-dekabr, birlik



■ Nikoh, birlik
■ Nikoh koeffitsiyenti, promille

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohlar qayd etildi. Jami tuzilgan nikohlar soni **23 476** ta (o'tgan yilning mos davrida **25 055** ta). Qayd etilgan nikoh ko'rsatkichi aholiga nisbatan **6,8** promilleni (2023-yilning tegishli davrida **7,5** promille) tashkil etdi.

Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar - Mart

Shahar
1 727



Qishloq
1 890



Yanvar - Iyun

Shahar
4 146



Qishloq
3 758



Yanvar - Sentabr

Shahar
8 086



Qishloq
7 042



Yanvar - Dekabr

Shahar
12 033




Qishloq
11 443





NIKOHDAN AJRALISHLAR

Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi




Yanvar-Mart



Yanvar - Iyun



Yanvar - Sentabr




Yanvar - Dekabr



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, birlik




■ Ajrim, birlik
■ Ajrim koeffitsiyenti, promille

2024- yil yanvar - dekabr oylarida **4 781** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr oylarida **1,6** promille bo'lgan).



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr



farzandsiz
ajrashgan

1 nafar farzand
bilan ajrashgan

2 va undan ortiq
farzand bilan
ajrashgan

2024- yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **48,1 %** i farzandsiz, **28,6 %** i bitta farzand bilan va **23,3 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(yanvar - dekabr)

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil
Viloyat bo'yicha	6 674	7 202	8 540	9 068	-1 866	-1 866
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	1 787	1 577	2 163	2 481	-376	-904
Xonobod	268	325	192	203	76	122
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	516	550	397	472	119	78
Andijon	1076	1 394	913	920	163	474
Baliqchi	203	234	438	465	-235	-231
Bo'ston	131	138	161	172	-30	-34
Buloqboshi	203	201	340	338	-137	-137
Jalaquduq	240	301	600	562	-360	-261
Izboskan	45	296	545	560	-500	-264
Ulug'nor	58	36	158	192	-100	-156
Qo'rg'ontepa	529	444	606	677	-77	-233
Asaka	384	252	505	528	-121	-276
Marhamat	219	218	355	366	-136	-148
Shahrixon	202	289	502	476	-300	-187
Paxtaobod	193	264	347	321	-154	-57
Xo'jaobod	620	683	318	335	302	348

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 74 228-30-54